Foydalanish bo‘yicha qo‘llanma

Kompyuter stollari

GAMING-PORTAL

Mundarija

Foydalanish bo‘yicha qo‘llanma **2**

Texnik xususiyatlar **3**

To‘plam tarkibi **3**

Ehtiyot choralari **3**

Kafolat haqida ma’lumot **4**

Yoritgichni boshqarish **4**

Mavjud yoritgich rejimlari 5

Yoritgichni tashqi qurilmadan boshqarish 5

Tashqi qurilmalardagi yoritgichni boshqarish 5

O‘rnatish, saqlash, tashish (transportirovka), sotish va utilizatsiya qilish qoidalari va shartlari **9**

Qo‘shimcha ma’lumot **10**

Foydalanish bo‘yicha qo‘llanma

Qurilmaning vazifasi: o‘yin stoli unga kompyuter joylashtirish va foydalanuvchi uchun qulay sharoit yaratish uchun mo‘ljallangan.

Texnik xususiyatlar

- Model: Portal
- Savdo markasi: ARDOR GAMING
- Turi: o‘yin stoli
- O‘lchamlari: 1200 × 600 × 750 mm
- Stol usti qalinligi: 18 mm
- Maksimal yuklama: 75 kg
- Stol usti materiali: LDSP (laminatlangan yog‘och-qirindili plita)
- Stol osti karkasi materiali: po‘lat, toblangan shisha
- Ko‘p rangli LED yoritgich
- Elektr ta’minoti: USB, 5 V ⎓ 1,75 A (maks.)

To‘plam tarkibi

- Stol
- Stolni yig‘ish to‘plami
- Foydalanish bo‘yicha qo‘llanma

Ehtiyot choralari

- Qurilmani yig‘ishni boshlashdan oldin ushbu qo‘llanma bilan tanishib chiqing. Agar sizda biror savol tug‘ilsa, mahalliy savdo vakiliga murojaat qiling.
- Ushbu qurilma faqat xona ichida foydalanish uchun mo‘ljallangan.
- Qurilmani ilova qilingan yo‘riqnomaga to‘liq muvofiq ravishda yig‘ing. Yig‘ishni sertifikatlangan mutaxassislar bajarishi kerak.
- Yig‘ish to‘plami tarkibida yutib yuborilganda bo‘g‘ilib qolish xavfini tug‘diradigan mayda detallar bor. Bunday detallarni bolalar qo‘li yetmaydigan joyda saqlash kerak.
- Mahkamlagichlarning ishonchliligini muntazam ravishda (kamida 3 oyda bir marta) tekshiring va zarur bo‘lganda vintlarni torting.
- Stolga ruxsat etilgan maksimal yuklamadan oshirmang.
- Mebeldan faqat uning bevosita funksional vazifasi bo‘yicha foydalaning.

- Mebel mahsulotlaridan foydalanishda mebelning pol bilan tegib turadigan elementlariga suv va boshqa suyuqliklar tushishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.
- USB-kabel shikastlangan bo‘lsa, qurilmadan foydalanmang.

Kafolat haqida ma’lumot

Ishlab chiqaruvchi kafolat muddati davomida qurilmaning uzluksiz ishlashini, shuningdek materiallar va yig‘ishda nuqsonlar yo‘qligini kafolatlaydi. Kafolat muddati mahsulot sotib olingan paytdan boshlab hisoblanadi va faqat yangi mahsulotlarga taalluqlidir. Kafolatli xizmat ko‘rsatishga, mahsulotdan foydalanuvchi qo‘llanmasiga muvofiq foydalanilgan taqdirda, kafolat muddati davomida iste’molchining aybisiz ishdan chiqqan elementlarni bepul ta’mirlash yoki almashtirish kiradi. Elementlarni ta’mirlash yoki almashtirish vakolatli servis markazlari hududida amalga oshiriladi.

Kafolat muddati: 36 oy.

Foydalanish muddati: 36 oy.

Servis markazlari ro‘yxati — dns-shop.uz internet-do‘konining «Servis markazi» bo‘limida (dns-shop.uz/uz/service-center/). Shuningdek, mahsulot sotib olingan do‘konga murojaat qilishingiz mumkin.

Yoritgichni boshqarish



Stol yoritgich kontrolleri bilan jihozlangan.

- Yoritgichni yoqish/o‘chirish uchun «MODE» tugmasini bosib turing.
- Yoritgich rejimlarini almashtirish uchun «MODE» tugmasini bosing.
- Yoritgich rangini tanlash uchun «COLOR» tugmasini bosing.

Mavjud yoritgich rejimlari

1. Statik rang (8 ta rang mavjud: qizil, yashil, ko‘k, havorang, sariq, oq, pushti, to‘q sariq).
2. «Nafas olish (pulsatsiya)» (mavjud rang rejimlari: qizil, yashil, ko‘k, havorang, sariq, oq, pushti, rang-barang).
3. Kamalak.
4. Statik ko‘p rangli.

Yoritgichni tashqi qurilmadan boshqarish

- Kontroller indikatori xiralashguncha «MODE» tugmasini ikki marta bosing — yoritgichni tashqi kontrollerdan boshqarish rejimi yoqiladi.
- Stolni to‘plam tarkibiga kiruvchi K kabeli yordamida yoritgich kontrolleri bilan jihozlangan qurilmaga ulang.

Tashqi qurilmalardagi yoritgichni boshqarish

- Kontroller indikatori sekin miltillay boshlaguncha «MODE» tugmasini ikki marta bosing — tashqi qurilmalardagi yoritgichni boshqarish rejimi yoqiladi.
- Stolni yoritgichli qurilmalarga ARGB tarmoqlagich (to‘plam tarkibiga kirmaydi) orqali ulang.



Qurilmadagi yozuvlar: “ИНСТРУКЦИЯ ПО СБОРКЕ” — Yig‘ish bo‘yicha qo‘llanma


3
1
N
G
2
N
F
4
I
J
1
2
3



Qurilmadagi yozuvlar: “СТОЛ” — Stol

O‘rnatish, saqlash, tashish (transportirovka), sotish va utilizatsiya qilish qoidalari va shartlari

- Qurilmani montaj qilish qoidalari va shartlari ushbu qo‘llanmaning «Yig‘ish bo‘yicha yo‘riqnoma» bo‘limida bayon etilgan.
- Qurilma ishlab chiqaruvchida va iste’molchida qadoqda, isitiladigan xonalarda, havo harorati 10 °C dan 40 °C gacha va havoning nisbiy namligi 70% dan oshmagan sharoitda saqlanishi kerak. Xonalarda korroziyaga olib keladigan agressiv aralashmalar (kislota va ishqor bug‘lari) bo‘lmasligi kerak.
- Qurilmani tashish quruq muhitda amalga oshirilishi kerak.
- Qurilma ehtiyotkorlik bilan muomala qilishni talab qiladi, uni chang, iflosliklar, zarbalar, namlik, olov va h.k. ta’siridan asrang.
- Qurilmani sotish mahalliy qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi kerak.
- Qurilmada nosozlik aniqlanganda darhol vakolatli servis markaziga murojaat qilish yoki qurilmani utilizatsiya qilish kerak.
- Ushbu mahsulotni utilizatsiya qilish chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha mahalliy normalar va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ushbu mahsulotning to‘g‘ri utilizatsiya qilinishini ta’minlab, Siz chiqindilarning nazoratsiz tashlanishi natijasida atrof-muhit va inson salomatligiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararning oldini olishga hamda moddiy resurslardan oqilona foydalanishga yordam berasiz. Ushbu mahsulotni qabul qilish va utilizatsiya qilish punktlari haqida batafsil ma’lumotni mahalliy munitsipal organlardan yoki maishiy chiqindilarni olib ketish korxonasidan olishingiz mumkin.

Qo‘shimcha ma’lumot

Ishlab chiqaruvchi: Zhejiang Purui New Material Co., Ltd.
№399, Zhenlong oltinchi shossesi, Binhai iqtisodiy rivojlanish zonasi, Cixi sh., Zhejiang prov., Xitoy.
Manufacturer: Zhejiang Purui New Material Co., Ltd.
No.399, Zhenlong Sixth Road, Binhai Economic Development Zone, Cixi, Zhejiang Province, China.
Xitoyda ishlab chiqarilgan.
O‘zbekistonda importyor: XK MChJ «DNS GLOBAL» (STIR 312372987), Toshkent sh., Mirobod tumani, Said Baraka ko‘chasi, 34a. Sayt: dns-shop.uz
Mahsulot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga javob beradi.
Amal qilish muddati 05.04.2024 dan 04.04.2029 gacha (shu sana ham kiradi).
Sifatni yaxshilash maqsadida texnik xususiyatlar, mahsulot haqidagi ma’lumotlar va uning tashqi ko‘rinishi foydalanuvchini oldindan xabardor qilmasdan o‘zgartirilishi mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarilgan (oo.yyyy): _____ v.5

KO‘PROQ BILIB OLING:
ARDOR-GAMING.COM
VK.COM/ARDOR_GAMING

Qaydlar uchun



dns-shop.uz